ABDULLA QODIRIY ASARLARIDA ETNOFRAZEOLOGIZIMLAR

Eshmonov Nursulton
GulDU O‘zbek tilshunosligi
kafedrasi doktoranti
sultonmuhammad2112@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abdulla Qodiriy asarlarida frazeologik birliklarning berilishi masalasiga bag‘ishlanadi. Adib asarlarida qo‘llangan frazeologik birliklar maqolaning illustrativ materiali sifatida xizmat qiladi.

Tayanch so‘z va iboralar. Ibora, frazema, frazeologiya, maqol, aforizm, frazeologik birikma, leksema va b.

Abstract. This article is devoted to the issue of the use of phraseological units in the works of Abdulla Qodiriy. The phraseological units used in the works of the writer serve as illustrative material for the article.

Key words and phrases. Phrase, idiom, phraseology, proverb, aphorism, phraseological combination, lexeme, etc.

Аннотация. Данная статья посвящена вопросу использования фразеологических единиц в творчестве Абдуллы Кодирия. В качестве иллюстративного материала для статьи используются фразеологические единицы, применяемые в произведениях писателя.

Ключевые слова и фразы. Фраза, идиома, фразеология, пословица, афоризм, фразеологическое сочетание, лексема и т. д.

Badiiy matnning ta’sirchanligini oshiruvchi omillardan biri tilda mavjud frazeologik birliklardan o‘z o‘rnida va unumli foydalanishdir. Rus tilshunosi A.A.Potebnya tilni xalq tarixi, folklor, badiiy ijod, umuman milliy madaniyatni tashkil etuvchi barcha jihatlar bilan o‘rganish lozimligini aytadi[4].

[4]Потебня А.А. Слово и миф. – М., 1989. – С.38.

Etnofrazeologizmlar (etnonimli frazeologizmlar ham deyiladi) etnik stereotiplar, mentalitet va madaniy xususiyatlarni, milliylikni aks ettiruvchi nomlarini o‘z ichiga olgan iboralar to‘plami. Ular tilda tarixiy stereotiplarni qamrab olgan holda xalq uchun nutqiy birlik og‘zaki kod bo‘lib xizmat qiladi.

Abdulla Qodiriy o‘zining “Mehrobdan chayon” asarida turkiy tilda mavjud bo‘lgan frazeologik birliklardan unumli foydalangan. Muallif asar voqeligini ifodalashda, qahramon ruhiyati, fe’l-atvorini yoritish jarayonida til imkoniyatlaridan o‘rinli va mohirona foydalangan. Iboralarning shakllanish dinamikasi xalq tarixi, madaniyati, dunyoqarashi bilan uzviy bog‘liq.

Ibora frazeologizm, frazeologik birlik, frazema terminlari bilan ifodalanib kelinmoqda. Ibora so‘z birikmasi, gapga teng, semantik jihatdan bir butun, umumlashgan ma’no anglatadigan, nutqqa tayyor holda kiritiladigan lug‘aviy birlikdir[5]. Iboraning ko‘chma ma’noga asoslanishi, obrazliligi uning tasvir imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu jihatdan badiiy asar tilida ibora (badiiy) tasvir vositasi sifatida xizmat qiladi[6]. “Mehrobdan chayon” asari tilida qo‘llangan iboralarni mavzu mohiyati jihatidan quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. *Ruhiy holatni ifodalovchi frazemalar*. O‘zbek tili frazeologik sistemasida iboralarning katta guruhi faqat asosiy ma’noni ifodalab qolmasdan, balki so‘zlovchining shodligi, g‘azabi, nafrati, o‘kinchi, qo‘rquvi, kinoyasi, jirkanishi kabi emotsional munosabatlarni ham ifodalab keladi[7]. Adib asar tilida personajlar ruhiy holati, kechinmalarini ifodalashda iboralardan o‘z o‘rnida foydalangan: *yuragiga o‘t yoqar edi, o‘pka aralash, qanot qoqib, dimog‘idan dud chiqadir, ko‘zi qiymaydir, yuragi achishib* va h.k.

Buni ayrim iboralar vositasida tahlil qilamiz: *“yuragiga o‘t yoqar edi”* iborasi *“hasad qilmoq”* semasini ifodalab, personajlarning ruhiy holatini obrazli tarzda ochib bergan. Iboralarning biror voqea-hodisa, xarakterga nisbatan ijobiy yoki salbiy baho berish funksiyasi ham xarakterlidir. *Anvarning yozg‘an har bir jumlasini musiqiy kabi*

[5]Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2002. – Б.124.
[6]Абдувалиева Д. “Тарихи мулки ажам”да қўлланган паремиологик бирликлар ва уларнинг услубий хусусиятлари // Тилшуносликнинг долзарб масалалари, 2013, №6. – Б.49.
[7]Йўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари. – Самарқанд, 1998. – Б.92.

rohatlanib, tushunib tinglar va "shu bala barilaringdan ham o'qug'anraq chiqar!" deb, boshqa mirzolarning yuragiga o't yoqar edi. Kelib chiqish jihatidan mimika bilan bog'liq ayrim iboralar kishilarning ichki kechinmalarini ifodalash va shu asosda emotsional funksiya bajarish uchun xizmat qiladi.

Nos chakib yurgan Bahodirxon qulog'ig'a bu xabari jon so'z yetib dumog'idan dud chiqadir. Asarning ushbu parchasining o'zida bir nechta muallifning o'ziga xos okkazional ma'nodagi frazemalardan foydalanilgan: *"nos chakib yurgan" – "beparvo", "o'ylamagan"* degan ma'noni bildiruvchi muallifning o'ziga xos iborasidir. Frazemalarni yangi, individual variantlarda qo'llash jarayonida uning yumoristik yoki satirik xususiyati yanada bo'rtibroq ko'rinadi. Shuningdek, *"dimog'idan dud chiqadir"* iborasidagi *"dud"* leksemasi forscha *"tutun", "qurum"; "oh", "nola"*[8] so'zidan olingan bo'lib, ko'chma ma'noda *"achchiqlanish", "jahl chiqish"* semalarini ifodalagan bo'lib, *"fig'oni falakka chiqdi"* iborasining sinonimidir. Lekin biri okkazioal, biri uzual ma'nodagi frazemalardir.

2. *Muayyan harakat, holat, jarayon bilan bog'liq iboralar*: "yeng shimarib" - biror yumushni bajarishga taxt bo'lmoq, biror ishni qilishga otlanmoq[9], mazmunini bildiradi: *Men... uni o'rdadan jo'natdim, natijada hozirg'i ifloslikka yeng shimardilar* – qahramonlarning astoydil, jiddiy ravishda harakat qilish jarayonini ifodalamoqda. *"O'lim yag'mogari kelib uzdi"* – "yag'mo" so'zi eski o'zbek tilida "talon-taroj", "buzg'unlik"[10] ma'nosida qo'llanilgan bo'lib, o'limga olib ketuvchi deb Azroil farishtaga ishora qiluvchi muallifga xos frazemadir: *Bir kun oradag'i do'stliq rishtasini o'lim yag'mogari kelib uzdi.* Ushbu frazema *jon bermoq, oxirgi yo'lga uzatmoq, tuproqqa topshirmoq, tuz-nasibasi uzilmoq, jonini jabborga topshirmoq, vaqti-kuni bitmoq* - *"o'lmoq"* ma'noli frazemalarga semantik jihatdan juda yaqin.

Tilshunoslar iboralarda sinonimiyani belgilashning ayrim mezonlarini taklif etadi. *Frazeologik sinonimiya* shunday frazemalarki, ular bir xil yoki ma'no jihatdan juda

[8]Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. I, V том. – Б.656.
[9]Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. –Б.79.
[10]Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. I, V том. – Б.131.

yaqin, o‘zaro munosabatdagi bir xil so‘z turkumlaridan iborat bo‘lsa-da, biroq birbiridan ma’no ottenkalari bilan u yoki bu tomondan farqlanadi[11]. *Anvar to‘g‘risida eri bilan achchig‘-tiziq bo‘lg‘an bir kun paranjisini yopinib ko‘chaga chiqdi va to‘g‘ri Solih maxdumning uyiga bordi. “achchiq-tiziq bo‘lg‘an”*- iborasi “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”da ketirilmagan, lekin ushbu iboraning sinonim variantlari bor: *nari-beri bormoq, adi-badiga bormoq*[12] – *“xafalashmoq”, “janjallashmoq”* ma’nosida qo‘llaniladi. Sinonim iboralar bir-biri bilan “ma’no nozikligi, uslubiy bo‘yog‘i yoki bir vaqtda ikkalasiga ko‘ra farqlanadi. *Chunki Abdurahmon yana bir iljayib ikki og‘iz so‘z aytsa, Kalonshohning og‘zini tikish og‘ir oshar, Shahodat mufti buni yaxshi anglar edi* – asar matnida keltirilgan yana bir o‘ziga xos *“og‘zini tikish”* iborasi jag‘ini yumish iborasini sinonimi tarzida qo‘llangan bo‘lib, *“jim turish”* ma’nosida voqelangan. Muallif frazemaga obrazli tarzda yondashgan.

3. Sifatlash xarakteridagi iboralar: “yeshilib ketdi” iborasi *“saxiy bo‘lmoq”* ma’nosida bo‘lib, xasis va kamchiqim qahramonning xarakterini ochib berishga xizmat qilmoqda: *Maxdum tomonidan Ra’noning tergalishi Nigor oyimni uncha mashg‘ul etmadi. Ammo hozir uning ko‘ngliga kelgan masala erining chiqim vajiga favqulodda yeshilib ketishi edi.* Ushbu ibora ham okkazional xarakterga ega bo‘lib, Qodiriy uslubiga xos yangilikdir. Yozuvchi obraz yaratar ekan, uning xatta-harakatlari, qiliqlari orqali emas, nutqi orqali ochishga, yoritishga harakat qiladi. Har bir personaj o‘z nutqiy ohangiga ega bo‘lganidek, o‘ziga xos ibora qo‘llash usuliga ham ega bo‘ladi. Jumladan, asardagi Solih maxdumning *“habba”* takrorlanuvchi o‘ziga xos nutqi, *“ha barakalla”* ma’nosidagi ibora bo‘lib, tashqi olamdagi voqelikka o‘zining munosabatini, personaj nutqiy xarakteristikasining individual funksiyasini bajargan: *Domlaning bu “habba”si nima ma’noda qo‘llanilar, o‘zidan boshqa hech kim bilmaganidek, undan bu to‘g‘rida izoh ham so‘ramag‘an edilar. Chunki ul bir narsadan xursand va rozi bo‘lg‘anda aksar “habba” deb yuboradir.* Obraz xarakteridagi odatga ishora qiladi, shu bilan matnni ixchamlashtirishga xizmat qiladi. Ba’zan iboralar muayyan tushunchani obrazli

[11]Йўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари. – Самарқанд, 1998. – Б.66.
[12]Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. –Б.184.

nomlamasdan, butun matnga kuchli obrazlilik baxsh etadi. Ba’zan personaj nutqi tarkibida bir iboraning qayta-qayta qo‘llanilishi o‘sha ibora orqali obrazlilik, personaj xarakterini matnda kuchliroq yetkazib berishga xizmat qiladi[13].

Frazemalar personaj nutqida qo‘llanish darajasi har xilligi bilan ajralib turadi, ya’ni ayrim personajlar nutqida iboralardan keng foydalanilsa, boshqa bir guruh personajlar onda-sonda ibora qo‘llashi bilan xarakterlanadi. Shuningdek, muallif asar voqealarini tasvirlash jarayonida ham personaj tabiatidan kelib chiqib, frazemalardan qo‘llagan. Xususan, asarda *Solih maxdum, Nigorxonim, Kalonshoh mirzo, Safar bo‘zchi* kabi qahramonlarni muallif tasvirlash jarayonida ham, personaj nutqida ham iboralardan ko‘p miqdorda va o‘rinli foydalangan.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, badiiy asar qahramonlarini yaratish jarayonida ishtirok etadigan til vositalari orasida etnofrazemalar alohida o‘rin tutadi. Ular personajning muayyan ijtimoiy muhitga tegishli ekanligini, personaj nutqining o‘ziga xosligini gavdalantirish uchun vosita hisoblanadi.

Muallif voqelikni tasvirlashda, inson ruhiyati, xarakterini yoritish jarayonida frazemalardan o‘rinli va mohirona foydalangan. Uzual ma’nodagi frazemalardan ko‘ra, muallif asar tasvirida individual, o‘ziga xos iboralarni qo‘llagan. Bu esa adibning mahoratidan va o‘ziga xos uslubga egaligidan dalolatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Қодирий А. Меҳробдан чаён. – Тошкент: Ғофур Ғулом, 2018.

2. Абдувалиева Д. “Тарихи мулки ажам”да қўлланган паремиологик бирликлар ва уларнинг услубий хусусиятлари // Тилшуносликнинг долзарб масалалари, 2013, №6.

3. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978.

4. Потебня А.А. Слово и миф. – М., 1989. – С.38.

[13]Йўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари. – Самарқанд, 1998. – Б.102.

5. Йўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари. – Самарқанд, 1998.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. I, V том. – Б.656.
7. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2002.